

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**NAVOIY ASARLARINING TA’LIM-TARBIYADAGI AHAMIYATI VA
ULARNI O’QITISHDA INTERFAOL USULLAR**

Tursunpulatova Gulinur Alisher qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

*Gumanitar fanlar fakulteti O‘zbek tili va
adabiyoti ta’limi yo‘nalishi talabasi*

Ilmiy rahbar: Rayxon Rasulova

*o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi, p.f.f.d
(PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodini AKTlardan foydalanib o‘tishning dars samaradorligini oshirishdagi ahmiyati haqida so‘za boradi.

Kalit so‘zlar: Media fayllar, Audio, video materiallar, .mp3 format, audiorolik, .swf, .avi format, videoroliklar.

Navoiy asarlarini o‘rganish masalasi barcha zamonlarda dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Alisher Navoiy asarlarining deyarli barchasida pand-nasihat, o‘git, axloq-odobga doir fikrlarni uchratish mumkin. Shu sababli Hazrat Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida katta ahmiyatga ega. Pedagoglar o‘quvchilarni darsga qiziqtirib o‘tish uchun interfaol merodlardan unumli foydalanishsa maqsadga muvofiq bo‘lada.

Bularni chuqur o‘rganish yangi O‘zbekistonimizning yosh mutaxassislari uchun nihoyatda zarur deb bilaman. Navoiy lirik merosi turkiy adabiyotimiz tarixidagi eng mukammal va betakror ijod namunalaridandir. Ularni o‘qib-o‘rganish, ma’no-mohiyatini tushunishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari va interfaol metodlarga murojaat qilish zamon talabidir. Darslarda ta’limning texnik vositalaridan, kompyuter texnologiyasidan foydalanish masalalari S.Nishonova, T.R.Niyazmetova va boshqa bir qator metodist olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Ta’lim tizimida adabiyot darslari, xususan, Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishda adabiy materialarni kengroq o‘rganish imkonini beradiganda axborot texnologiyalaridan foydalanishga keng yo‘lga ochilmoqda. Shoир asarlarining elektron variantlari ham kitobxonlar va o‘quvchilarga havola qilinmoqda. Elektron axborot ta’lim resursining asosiy tashkil etuvchilari quyidagilar: Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yicha ma’ruza matni. Bunda fanning kalendar-tematik rejasi asosida ma’ruza matni beriladi. Maruza matnida talaba ushbu fanni o‘rganishi uchun zarur bo‘lgan barcha mavzular qamrab olinadi. Unda har bir mavzu uchun tayanch so‘z va iboralar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi. Media fayllar. Audio, video materiallar. Mazkur blok dars mavzusini yorituvchi .mp3 formatidagi audiorolik, .swf yoki .avi formatidagi videoroliklar. Navoiy g‘azallarining ko‘philigi

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

mashhur hofizlar tomonidan qo‘sish qilib kuylangan. Ulardan dars jarayonida foydalanish o‘quvchi ijodiy fikrlashini, estetik didini o‘siradi. Shuingdek, shoirning hayoti va ijodiy faoliyati, asarlari asosida ishlangan kinofilmlardan namunalar ko‘rsatilishi mumkin.

Axborot texnologiyalarini ta’im tizimiga tadbiq etish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ta’lim tizimida axborot texnologiyalarni qo’llash shaxsiy kompyuterlar va axborot texnologiyalarinnig pedagogik dasturiy vositalari hamda multimedia vositalarining yaratilishi bilan bog‘liqdir. Bugungi kunda AKTlarining multimedia vositalarida o‘quv materiallarini obrazli ko‘rinishda ifodalash imkoniyati mavjud. Ma’lumotlarning obrazlar ko‘rinishida taqdim etilishi ham bilim olish va fikrlashga ijobiy ta’sir qiladi. Ko‘rinishidagiga nisbatan o‘quvchi diqqatini tez jalb etishi bilan birga oson o‘zlashtirishga ko‘proq yordam beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari an’naviy o‘qitish texnologiyasidan inson intellekti rivojlanishining yangi shoxobchasiha mos keladigan obrazli ko‘rinishda ma’lumotlarni taqdim etishi, muloqot tillari bilan bog‘liq muammolarni yechishga hamda jahondagi kommunikatsion jarayonlarning rivojlanishiga olib kelishi bilan ham farqlanishi mumkin. Bunday taqdim etish vositasida o‘quvchilarning bilish jarayonga, jumladan, o‘quv materiallarini qabul qilish, ma’nosini anglash, esda saqlash va takrorlash kabi jihatlarga ma’lum darajada ta’sir etish mumkin. Shuingdek, bu metod o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishlarini orttirishi bilan birga ko‘p vaqt sarf qilmasdan o‘zlashtirishlariga erishtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov, Navoiyshunoslik (garslik) Toshkent 2018